

BOYMIRZAYEV XURSHIDJON KARIMJANOVICH



**TARIX FANINI O'QITISHDA
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI
LOYIHALASHTIRISH
(uslubiy qo'llanma)**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

BOYMIRZAYEV XURSHIDJON KARIMJANOVICH

**TARIX FANINI O‘QITISHDA
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI
LOYIHALASHTIRISH**

NAMANGAN – 2022

Ushbu metodik qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2012-yil 29-oktyabrdagi 418-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va boshqa me‘yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqildi.

Metodik qo‘llanma ma’lumotlaridan 5120300 – Tarix (Jahon mamlakatlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘tiladigan “Tarix fanida innovatsiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar” va “Tarix o‘qitish metodikasi” fanlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tarix fani o‘qituvchilari va o‘quvchilar dars mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

Tuzuvchi: Namangan Davlat Universiteti –
Boymirzayev Xurshidjon Karimjanovich
katta o‘qituvchi (PhD) v.b. dotsent.

Taqrizchilar: Rasulov Abdulla Nuritdinovich –
Namangan davlat universiteti Tarix
kafedrasi t.f.d professor.

Mansurov Ulug‘bek Umarovich –
Namangan davlat universiteti
Arxivshunoslik kafedrasi PhD t.f.n., dotsent.

SO‘Z BOSHI

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g‘oyasi Respublika Konstitutsiyasida e‘tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlatva jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko‘tarilish, jahon hamjamiyati safidan munosib o‘rinegallashga yo‘naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo‘lishi eng avvalo yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o‘rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, ma‘naviy – axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta‘limiy – tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog‘liqdir. Yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy – ma‘naviy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishini ta‘minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tayyorlashga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan (2020-yil 23-sentabr yangi tahriri) qabul qilingan hamda bugungi kunda g‘oyalari amaliyotga keng ko‘lamda muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to‘la qonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o‘zida ta‘lim jarayonini samarali tashkiletish, uni yuqori bosqichlarga ko‘tarish, shu bilan birga jahon ta‘limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Tarix fanini o‘rganish hozirgi davr talabi ekan, o‘rib kelayotgan yosh avlodga uni o‘rganishning yangi uslublarini, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ga asoslangan holda ishlab chiqib, o‘qish jarayoniga tavsiya etish olimlar, mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Iste‘dodli yoshlarimizning o‘z qiziqqan sohalarida yetuk mutaxassislar bo‘lishlari uchun, avvalambor tarix fanini jumladan, O‘zbekiston tarixini mukammal bilishlari zarur. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov “...O‘z tarixni bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo‘lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarixi bilan qurollantirishimiz zarur...” ligini alohida ta‘kidlab o‘tgan ¹.

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулоқот. – 1998. № 5. – Б.13.

Bu borada ta'lim maskanlarida tarix fanini o'qitishning o'rnini beqiyosdir. Bunda esa darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va ko'plab interfaol usullardan foydalanish davr talabidir.

Tarix darslarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish orqali ularning erkin nutqini ta'minlash va bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish usullarini ishlab chiqish, hamda ularni amalda qo'llay olish bo'yicha metodik tavsiyalar berish; bugungi kunda qo'llanilayotgan zamonaviy usullar, uslublar va o'qitish vositalari haqida ma'lumot berish orqali ularning mustaqil fikrlashga ega bo'lishini ta'minlash va bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish usullarini ishlab chiqish hamda ularni amalda qo'llay olish bo'yicha metodik tavsiyalar berishdan iborat.

I BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING NAZARIY ASOSLARI

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va tamoyillari

Bugungi kundailmiy-texnik taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarish sohasi balki madaniyat, ta'lim sohalariga ham kirib bormoqda. Pedagogik texnologiyaning ilk paydo bo'lish davri ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi bilan belgilanadi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti jadallashuvidan oldingi davrda ishlab chiqariladigan mahsulot yuqori puxtaligi va sifati bilan ajralib turmas edi. Shu sababli mahsulotlar uchun kafolatli ta'mir muddatlari o'rnatilgan edi, kafolatli ta'mir esa ishlab chiqarish korxonalarini hisobidan bajarilar edi. Mazkur sharoitda an'anaviy o'qitish tizimi, ishlab chiqarish talabiga javob berardi. Ishlab chiqarish sharoitining o'zgarishi bilan an'anaviy o'qitish asosida tayyorlangan mutaxassislar sifatiga qo'yiladigan talablarga javob bermay qo'ydi. Natijada pedagogik texnologiyalarni yaratish ehtiyoji yuzaga keldi.

Dastlab pedagogik texnologiyalar XX asrning 70-yillarida AQSHda yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mamlakatlarga ham tez tarqaldi.

Tarixan texnologiya tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan. Texnologiya grekcha so'z bo'lib, texnos-san'at, mahorat, logos-ta'limot degan ma'nolarni bildiradi. Texnologiyaning fan sifatida vujudga kelishiga –XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo'lishi metallurgiya, mashinasozlik, sanoat jihozlari, paraxod, paravoz, o'q otuvchi qurollarni ishlab chiqarishning jadal rivojlana boshlashi sabab bo'ldi.

Bunday murakkab va mehnat talab mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, faqat texnologik jarayoni aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar asosida tashkil etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda xomashyo, materiallar, mahsulotlarni olish, ishlov berish, qayta ishlash yo'llari va usullarining murakkab jarayonlarini o'zaro bog'liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakatlar, rejalashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan ommaviy ishlab chiqarishga asos bo'ladi. "Texnologiya"ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko'paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan. U texnik vositalar haqidagi ta'limot deb hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va

muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Pedagogik texnologiya atamasiga hozirgi paytgacha 300 dan ziyod ta'rif berilgan bo'lsada, unga yakdillik bilan berilgan ta'rif mavjud emas.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilardan bo'lib har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P.Bespalkoning fikricha, "Pedagogik texnologiya – bu o'qtuvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir"².

V.P. Bepalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi. Uning fikricha o'qtuvchining pedagogik mahoratidan qat'iy nazar, pedagogik texnologiyadan foydalanish samarali natija ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiya – bu bilimlar o'zlashtirilishining barcha jihatlari muammolarini tahlil etish va rejalashtirish, ta'minlash baholash va muammolar yechimini boshqarishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish usullari va vositalari, g'oyalarni o'z ichiga oluvchi majmualashgan jarayondir. (AQSHning pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi).

Rossiyalik olimlardan V.M.Monaxov: "Pedagogik texnologiya – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir", -degan qisqacha ta'rifni berib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborini qaratadi.

M.V. Klarin fikricha, "PT – o'quv jarayoniga texnologik yondoshgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir."

I.Y Larnerning fikriga ko'ra, "PT – o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan, aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi".

V.P.Bespalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan Nurali Sayidahmedov va Abdurahmon Ochilovlarning fikricha, "PT-o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir"³.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "PT – ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy – muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning

² Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: «Педагогика», 1989. -С. 192.

³ SayidahmedovN., OchilovA. Yangipedagogiktexnologiyamohiyativazamonaviyloyihasi. – T., 1999. –B.7-8.

texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir"⁴.

PT – bu o'zida turli manbalarning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi. (G.N.Selevko).

PT – ta'limning belgilangan maqsadi va ta'lim oluvchining bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi hamda pedagogik tizimning amalda bo'lishini ta'minlovchi zarur vositadir. (N.N. Azizxo'jayeva).

PT – vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim. (O'.Q.Tolipov).

Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi, va metodlar yig'indisi.(V.M.Shepel).

Pedagogik texnologiyaning juda ko'p ta'riflari mavjudligi, bu atamaning yagona aniq ta'rifi mavjud emasligini inobatga olib, unga nufuzli tashkilot YUNESKO tomonidan berilgan ta'rifiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir: “Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmualiy yondoshuv usulidan foydalanishdir”⁵.

Bu ta'riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so'z siz, o'quv jarayoniga majmua sifatida yondoshishdir. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, birbutunlikni, ya'ni pedagogik jarayon majmuini tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuining muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma- bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi.

Pedagogik texnologiyaning an'anaviy usullardan asosiy farqi, uning to'la-to'kis majmualar nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidir.

Pedagogik texnologiyaning avvalgi usullardan afzalligi, u ta'lim jarayonini butunlikda ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni majmuaga keltirib, ta'lim bosqichlarini loyihalab, ta'lim jarayonini nazorat qilish va ta'lim natijalarini baholash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'lab, uning loyihasini tuzishidir.

⁴ Фарберман Б. Л. Илғор педагогик технологиялар. – Т., 1999. –Б.4.

⁵ Фарберман Б. Л. Илғор педагогик технологиялар. –Т., 1999. –Б.3.

Uning an'anaviy usullardan keyingi farqi, u talabalarning o'zlariga berilgan bilimni yodlab olib aytib berishiga emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonining yakunida amaliy ishlarni bajarishiga yo'naltirilganligidadir.

Pedagogik texnologiyaning boshqa ta'lim usullaridan navbatdagi farqi, uning yordamida o'quv jarayoni tashkil etilganda, dars natijasi bilim beruvchining pedagogik mahoratiga bog'liq emasligidadir. Yaxshi loyihalashtirilgan pedagogik texnologiya bo'yicha har qanday o'qituvchi a'lo bo'lmasada, yaxshi dars o'tadi. Chunki pedagogik texnologiyani pedagog olim, metodist yoki ilg'or tajribali o'qituvchilar tuzadi. Shu sababli ularning pedagogik mahorati pedagogik jarayon loyihasida o'z ifodasini topgan bo'ladi. Avvalgidek, "darsdan ko'zlangan maqsadga obyektiv sabablarga binoan yetib bo'lmadi" yoki "kutilmagan omillarga binoan dars buzildi" va shunga o'xshash gaplarga pedagogik texnologiyada o'rin yo'q.

Pedagogik texnologiya –bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiquvchi oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini majmua sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma- ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir. Ta'lim tarbiyaga nisbatan bunday yondoshuvning dastlabki ko'rinishlari XVIII asrda vujudga kelgan edi. "Buyuk didaktika"ning asoschisi Yan Amos Komenskiy ta'lim jarayonini "unda har bir usul va narsalar vaqt jihatidan shunday joylashtirilish kerak ediki, butun pedagogik jarayonyaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak" bo'lgan shaklga solmoqchi bo'lgan. Komenskiy yetmagan orzularga XX asr pedagoglari yetib, bu ijtimoiy hodisa pedagogik texnologiya nomini oldi. Bugungi kunga qadar butun dunyo o'qituvchilari va pedagoglariga dasturil amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir⁶.

Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi – ommaviy ta'lim sharoitida "oddiy" pedagoglarga o'qitishning yetarli samarasiga erishishni ta'minlovchi o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi.

⁶ Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. – T., 2012. – B.19.

Sanoatlashgan jamiyatning ishchisini shakllantirish uchun jamiyat ishlab chiqarishning yangi talablariga javob beradigan yangi ta'lim texnologiyasi zarur bo'ladi, yangi turdagi xodim uchun yangi turdagi pedagog mos keladi. Ta'lim tizimida o'qituvchining uch turli maqomi, pedagogik faoliyatning uch turini alohida qayd etish mumkin.

Pedagogik faoliyatning birinchi turi, o'qituvchi o'z ishining ustasi hisoblanadi, nodir bilimlar, ko'nikmalar tashuvchisi, shaxsiy tajribaga, pedagogik qobiliyatga ega bo'ladi. Uning yo'llari, usullari individual bo'lib, pedagogik iste'dodining mevasidir. Qo'llanmalar, ko'rgazmali va texnik vositalar unga meros qolgan yoki o'zi tomonidan ishlab chiqilgan.

Pedagogik faoliyatning ikkinchi turi, shu bilan tavsiflanadiki, unda o'qitish tajribasi umumlashtiriladi, tizimlashtiriladi va ilmiy fan ko'rinishini oladi. Bunga kitob chop etishning paydo bo'lishi, pedagogik mehnatning bo'linishi va ixtisoslashuvi sabab bo'ldi. Bu yerda pedagogik jarayon oqilona tashkil etilgan, o'qitish ma'lum qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu sharoitlar bilimni obyektivlashtirish imkonini beradi. O'qituvchi sanoatlashgan jamiyatning ishlab chiqarish xodimiga o'xshab, sanoatlashgan turdagi xodimga aylanadi.

Pedagogik faoliyatning uchinchi turi, shu bilan tavsiflanadiki, u pedagogik texnologiya asosida amalga oshiriladi, o'qituvchining holatini zamonaviy kompyuterdan foydalanuvchi holati bilan taqqoslash mumkin. O'qitish texnologiyasi kasbiy ishlab chiqilmasdan, zamonaviy samarali ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin emas.

Ishlab chiqarish sohasiga o'xshab, ta'lim sohasida davlat ta'lim standartlari yaratilganidan so'ng – texnologik tayyorgarlik amalga oshiriladi (namunaviy o'quv rejalar, fanlarning namunaviy o'quv dasturlarini, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, laboratoriya jihozlari, o'qitishning texnik vositalarini loyihalash, tayyorlash va sotib olish, o'quv ishlarini hisoblash uchunvaqt meyorlarini o'rnatish va h.k.), u ta'lim jarayonini tartibga soladi, ta'lim muassasasini va kadrlar tayyorlash sifatini baholaydi.

O'quv jarayonining texnologik tayyorgarligi o'qitish jarayonini maqbullashtirish va uning samaradorligining ta'minlanishini ham o'z ichiga oladi. O'qitish jarayonini bir xillashtirishga, o'qitishda maksimal samaradorlikka erishish, pedagogik texnologiyani yaratish va qo'llash orqali erishiladi.

Pedagogik texnologiyaning xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni yaratiladi va ro'yobga chiqariladi.

Ishlab – chiqarishning texnologik jarayoni ma’lum mahsulot uchun ishlanganidek, pedagogik texnologiya ham har bir fan uchun o’qitish texnologiyasining asosiy elementlarini o’z ichiga olgan umumiy uslubiyot asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Bu ommaviy o’qitish sharoitida, talabalar tomonidan fanlarning to’la o’zlashtirilishini ta’minlovchi eng maqbul yo’llardan biridir.

Pedagogik texnologiya amaliyotga samarali tadbiriq etiladigan, tegishli tamoyillar asosida ishlab chiqilgan o’quv jarayonining loyihasidir. Pedagogik texnologiya maqsadlari, vazifalari, tarkibi va mazmunining tahliliga ko’ra uning quyidagi asosli tamoyillari shakllantirilgan: ilmiylik, loyihalalanish, tizimlilik, maqsadga yo’naltirilganlik, faoliyatli yondashuvlik, boshqariluvchanlik, tuzatuvchanlik, natijaviylik, qayta takrorlanuvchanlik, tejamlilik. Ushbu tamoyillar o’zaro bog’liq bo’lib, bir birini talab etadi va to’ldiradi. Bu tamoyillar asosida

O’quv jarayoni tashkil etiladi. Mazkur tamoyillar majmuasi aniqligi, isbot talab etmasligi, amaliyligi tufayli, yuqori darajali kadrlarni tayyorlashda ajoyib natijalarni beradi.

1. Ilmiylik tamoyili. Bu tamoyil har qanday o’quv predmeti, o’quv materiali yondashuv asosida aniqlanadi. Ular odatda shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalar hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya, ommaviy ta’lim sharoitida davlat ta’lim standartlari darajasida kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi. Texnologik jarayoni fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko’rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo o’quv dasturlar, o’quv qo’llanmalarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq har yili o’quv fanlarining ishchi o’quv rejaları va o’quv materillarini takomillashtirish, muammoli mashg’ulot o’tkazish talab etiladi. Ilmiy axborotning ifoda etilishi aniq va qat’iy bo’lishi kerak⁷.

Ushbu tamoyilning oliy ta’limda ro’yobga chiqarilishi uchun, barcha o’qituvchilar tomonidan majburiy ravishda ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilishi va bu ishga talabalarning jalb qilinishi taqozo etiladi. Bu talabalarda ajoyib nostandart yechimlar topish, mustaqil va ijodiy ishlash malakalarini hosil qilish, ilmiy adabiyot va axborotlardan foydalanish ko’nikmalarini, ularda tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. Oliy ta’limda o’quv jarayoni doimo harakatdagi jarayondir, shuning uchun u doimiy ravishda nafaqat fan va texnikaning holatini, balki

⁷Avliyaqulov N. X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. – T., 2012. –B. 29.

ularning zamonaviy taraqqiyoti barcha xususiyatlarini e'tiborga olishni talab etadi.

2.Loyihalanish tamoyili. Bu tamoyil pedagogik texnologiyaning eng muhim xususiyatlaridan birini belgilaydi. Loyihalanish tamoyilida o'quv jarayonini tashkil etishda kerak bo'ladigan barcha hujjatlar – o'quv jarayoni grafigi, ishchi o'quv reja, fanning ishchi o'quv dasturi, fanning, bo'limlarning o'quv maqsadlari, o'qitish jarayoni texnologiyasi, egallangan bilim va ko'nikmalarni baholash tizimi-oldindan yaratiladi. Ishlab chiqilgan hujjatlar asosida o'quv jarayoni amalga oshiriladi. Bu hujjatlarning barcha bandlariga rioya etilishi rejalashtirilgan natijalarga erishishni kafolatlaydi⁸.

3.Tizimlilik tamoyili. Ushbu tamoyilning mohiyati shundaki, o'quv jarayonining barcha elementlari, ularning o'zaro bog'liqlik sharti asosida yagona tizim kabi loyihalanadi. Bunda o'quv jarayonining barcha elementlari tuzilmasi, tashkil etilishi va faoliyati talabalarni o'qitishga rag'batlantiriladi. O'quv jarayonini tayyorlash qismida – o'quv jarayoni grafigi va ishchi o'quv reja ishlab chiqiladi, mashg'ulotlar jadvali tuziladi, fanning ishchi o'quv dasturi, o'quv-uslubiy materiallar va boshqalar ishlab chiqiladi. O'qitish jarayoni qismida – bilimlar, ko'nikmalar, malakalar o'zlashtirilishi va ular sifatini baholashi amalga oshiriladi⁹.

Tizimlilik tamoyilining tayanch ekanligi pedagogik texnologiyaning o'qitishning boshqa yondashuvlaridan farq etuvchi asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

4. Maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili. O'quv jarayoni maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Maqsad ham qonun kabi odamning xarakteri va harakat usulini aniqlashi zarur. Buning uchun belgilangan maqsad aniq va o'lchanadigan bo'lishi zarur. Bixeviorizm g'oyalariga tayangan pedagogik texnologiya aynan shu bilan farq qiladi. Psixologiyada bu yo'nalishning xususiyati – organizmning qo'zg'atishga bog'liqligini shak- shubhasiz tan olish va uni bu qo'zg'atishga undashdan iboratdir. Bixeviorizm o'qitish jarayonida organizmda kechadigan jarayonlarni o'rganmaydi, u faqat tashqaridan kuzatiladigan jarayonlarni tahlil qiladi, qo'zg'atish (rag'batlash) va yechimlar orasidagi bog'lanishni o'rganish bilan cheklanadi. Bixeviorizm psixologiya sohasini kengaytirdi va unga tashqi ta'sirlarni kiritdi. J.Uotson, E. Torndayn, S.Pressi, B. Skinnerlar bixeviorizmning asoschilari edilar.

⁸Avliyaqulov N. X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. – T., 2012. –B.30.

⁹Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. – T., 2012. – B.31.

Pedagogik texnologiyaning maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili – tirik organizm tanasining skeletiga o'xshaydi. Umuman o'quv jarayoni uchun, bu tamoyil ahamiyatini baholash juda qiyindir. Buning uchun o'qitishning eng ko'p tarqalgan ta'rifini keltirish yetarlidir:

“O'qitish bu o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatning maqsadga yo'naltirilgan jarayoni bo'lib, uning davomida inson ma'lumotga ega bo'ladi”. Bundan o'qitish sifati maqsadlarni shakllantirish sifatiga bog'liq ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Pedagogik texnologiyada, maqsadlarni shakllantirish umumiylikdan xususiylikka tizimli yondashish asosida amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, muayyan o'quv fanining ma'lum mutaxassisni tayyorlashdagi o'zni va ahamiyati aniqlanadi¹⁰.

Buning uchun davlat ta'lim standartlaridan fodalaniadi, uning asosida o'quv fanining umumiy o'quv soatlari o'quv mashg'ulotlari turi – ma'ruza, amaliy, laboratoriya, mustaqil ishlar bo'yicha bo'linadi. So'ngra, quyidagicha o'quv maqsadlari shakllantiriladi:

tayanch iboralarning o'quv maqsadi;

mavzuning o'quv maqsadi;

bo'limning o'quv maqsadi;

fanning o'quv maqsadi.

5. Faoliyat yondashuvi tamoyili. Ilmiy texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichi murakkab yuqori texnologiyalarni qo'llash, ilm talab qiluvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi, bunda nafaqat fan ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi, bunda nafaqat fan ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, balki ishlab chiqarish fanning jadal rivojlanishiga sharoit yaratadi. Bunday sharoitda, faoliyat yondashuviga tayangan o'quv jarayonining samaradorligi oshadi. O'quv reja, fanlar dasturi, mashg'ulotlar turi bo'yicha o'quv soatlari mutaxassis faoliyatining batafsil tahlili asosida o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir – hozirgi paytda “ yuz bor eshitishdan ko'ra, bir bor ko'rish afzaldir” degan tamoyilga tayanish kamlik qiladi. Hozirgi zamon sharoitida, o'quv jarayoni “ yuz bor ko'rmoqdan ko'ra, bir bor bajarish afzal” degan tamoyilga asoslanib tashkil etilish kerak. Kasb-hunarta'limi uchun bu tamoyil o'ta muhim ahamiyatga egadir¹¹.

Mutaxassis faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va malakalari shakllantiriladi. Hozirgi sharoitda, pedagogika fanida mavjud, “nazariya va amaliyotning bog'liqlik tamoyili” sifat jihatdan yangi ma'noda – “faoliyat yondashuvi

¹⁰ Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. – T., 2012. – B.34.

¹¹ Avliyaqulov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. – T., 2012. – B. 34.

tamoyili” ko’rinishida aks ettiriladi. Ushbu tamoyil, nafaqat nazariya va amaliyot bog’liqligini, balki ularning o’zaro ta’sirini, o’zaro kuchayishini, o’quv jarayonini tashkil etishda mutaxassis ishlab chiqarish faoliyatini hozirgi va kelgusi talablariga tayanilishini hisobga oladi.

“Faoliyat” tushunchasining mohiyati o’z ichiga maqsad, vosita va jarayonni qamrab oladi. Mutaxassis faoliyatining tahlilida ushbu tashkiliy qismlar va ularning o’zaro ta’siri inobatga olinishi kerak. Bu o’quv jarayonini samaralilashga imkoniyat beradi. “Faoliyat” tushunchasining mazmuni nuqtayi nazaridan o’quv jarayoni ham maqsadlari, vositalari, natijasi va jarayonning o’zzi bilan tavsiflanadi. O’quv jarayoni, bo’lajak mutaxassisning o’quv faoliyati sifatida tasvirlanadi. Umuman olganda o’quv jarayoni mutaxassis faoliyatining aks tasviridek bo’lishi lozim. Ularning muvofiqlik darajasi mutaxassis tayyorlashning sifatini belgilaydi.

6. Boshqariluvchanlik tamoyili. Pedagogik texnologiya o’qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishishni kafolatlaydi. Bunga faqat o’quv jarayoni boshqariladigan taqdirdagina erishish mumkin. Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o’qitish maqsadlariga erishish dasturini ro’yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Mazkur tamoyil o’qitishning joriy natijalarini aniqlashda ko’p bosqichli diagnostik tekshiruvlar o’tkazilishini nazarda tutadi. Butun o’qitish davrida o’qitish jarayonini boshqarish diagnostik testlar yordamida olingan natijalarni inobatga olgan holda amalga oshiriladi. O’qitish jarayonida diagnostik testlardan foydalanish teskari alqani ta’minlaydi. Teskari aloqa natijalarining tahlili, ko’zlangan natijaga erishish uchun vositalar va usullar o’zgartirish orqali o’qitish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi. Boshqarilish tamoyili, o’qitish jarayonini va shu bilan birga uning natijalariga muntazam ravishda tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi. O’qitish jarayonini sifatli boshqarish rejalashtirilgan natijalarga erishishning kafolatidir¹².

7. Qayta takrorlanish tamoyili. Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida kerakli miqdordagi mahsulot tayyorlash oldindan yaratilgan texnik hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa, qancha mahsulot ishlab chiqarish kerak bo’lsa, shuncha marta texnologik jarayon qayta takrorlanishini anglatadi. Pedagogik texnologiyada ham qayta takrorlanish tamoyiliga rioya qilinishi kerak. Qayta takrorlanish tamoyili muayyan fan bo’yicha ishlab chiqilgan pedagogik texnologik xaritaning

¹² Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. –T., 2012. –B.35.

turli guruhlarda, turdosh ta'lim muassasalarida boshqa subyektlar bilan takroriy qo'llash imkoniyatini yaratadi. Pedagogik texnologiyaning qayta takrorlanishini ta'minlash uchun pedagogik – texnologik xaritalar tuziladi. Bu o'quv hujjatlar o'quv fanining har bir mavzusi (moduli) bo'yicha ishlab chiqiladi. Qayta takrorlanish tamoyili – o'qitishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolati bilan uni turli guruhlarda ko'pchilik o'qtuvchilar tomonidan ko'p marotaba qo'llash imkoniyatini belgilaydi¹³.

8. Samaradorlik tamoyili. Ushbu tamoyil, pedagogik texnologiya o'qitishning ko'zlangan natijalariga maqbulxarajatlar bilan kafolatli erishish imkoniyatini yaratishini ko'rsatadi. O'quv jarayonining samaradorligiga pedagogik texnologiyaning yuqorida bayon etilgan tamoyillari: ilmiylik, loyihalani, tizimlilik, maqsadga yo'naltirilganlik, faoliyat yondashuvi, boshqariluvchanlik, qayta takrorlanuvchanlik tamoyillarini amalga oshirib erishiladi¹⁴.

Yuqoridagi tamoyillar yangi pedagogik texnologiyalarni yaratishda har doim asos bo'lishi lozim. Ushbu tamoyillar pedagogik texnologiyalarda aks etmasa bunday pedagogik texnologiyalar samarali bo'lmaydi. Shu sababli har bir tajribali, mahoratli pedagog yangi pedagogik texnologiyani yaratishda yuqoridagi tamoyillarni aks ettirgan holda faoliyat yuritishi kerak.

2. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining mohiyati

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini jamiyatning ma'naviy yangilashini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda. Zamonaviy bozor iqtisodining shakllanishi korxonalar orasidagi raqobat asosida, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini keskin rivojlanishini taqozo etadi. Chunki bozor iqtisodiyotini raqobatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Korxonalar orasidagi raqobat o'z navbatida, fan-texnika va texnologiyani, ya'ni ilmiy texnika taraqqiyotining (ITT) jadallashuviga olib keladi.

ITTning jadallashuvi, hayotning barcha sohalarida tubdan isloh qilinishi natijasida jahon hamjamiyatiga qo'shilish imkoniyatini beradi. Buyerda ham birinchi qatorda qo'yilgan masalalarni hal qila oladigan kadrlarni tayyorlash muammosi kelib chiqadi. Shuning uchun ham

¹³ Avliyaqulov N. X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. – T., 2012. –B.35.

¹⁴ Avliyaqulov N. X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. –T., 2012. –B.36.

respublikamizda “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir¹⁵.

Rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, quyidagi shartlar asosida amalga oshirilishi lozim:

Birinchidan, ITT ning hozirgi zamon holati ilm-fanning yuksalib borayotgan roli bilan belgilanadi. XX asrda, ayniqsa uning ikkinchi yarmida ilm-fanning rivojlanish tezligi sur’ati oshdi. Oxirgi, har 10-15 yil ichida ilmiy faoliyatning asosiy ko’rsatkichlari 2 marta oshib bormoqda. XX asrning ikkinchi yarmida olingan ma’lumotlar insoniyatning to’la tarixi davomida to’plangan bilimlarini katta qismini tashkil etdi. Shuning uchun ilm-fan rivojining asosiy qonuni eksponensial qonun hisoblanadi. Hozirgi paytda ilm-fan rivojining yuqori sur’atlari aqliy mehnatning borgansari avtomatlashtirilishi tufayli amalga oshmoqda. Ilm-fan rivojining jadallashuvi ilmiy texnikaviy axborotning jadal o’sishiga va tez-tez yangilanishiga olib keladi. Ilm-fan rivojining eksponensial qonun bo’yicha rivoji uning shiddatli o’sishini anglatadi. Demak, ilmiy-texnikaviy axborotning o’sishidagi shiddatli jarayon hisoblanadi. Jahonda har yili minglab kitoblar, jurnallar chop etiladi va o’n minglab dissertatsiyalar himoya qilinadi. Axborotning yuksalib borayotgan shiddatli oqimi tezligini ta’minlash maqsadida zamonaviy telekommunikatsiyali axborot tizimlari qo’llanilmoqda. Ko’rib turganimizdek, ilm-fan axborotining hozirgi zamon o’sish tezligi va hajmi ularning o’tgan 15-30 yildagi holatida keskin farq qiladi.

Ilm-fan rivoji, bu ma’lumotli mutaxassislarning faoliyat doirasidir. Shuning uchun oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash tizimi, ularning o’ta iqtidorlilariga zamonaviy axborot oqimini o’zlashtirishga, ilmiy tekshirish faoliyati individual va mustaqil ishlash ko’nikmalarini rivojlantirishga, ilmiy-texnikaviy axborot va o’quv ilmiy adabiyot bilan ijodiy ishlay olishlariga imkoniyat berishi lozim.

Ikkinchidan, hozirda zamon fanining shiddatli rivoji ikki, uch va o’ndan ortiq fanlarni ulanishlarida yangi turdagi fanlar paydo bo’lishi bilan ham ta’minlanadi. Masalan: biofizika, biogeokimyo, informatika, fizikokimyoviy mexanika va hokazo. Fan daraxti hosil bo’ladiyu,

¹⁵Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. – Т., 1997. –Б.5.

ma'lum fanlar ulanishlarida tug'ilgan yangi fan -buyangi yo'nalishlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalar demakdir. Bu masalalarni oliy maktabning iste'dodli bitiruvchilari hal etishi lozim. Shuning uchun kadrlar tayyorlashning zamonaviy tizimi, ularda o'zigaxos va nostandart fikrlash qobiliyatini o'stirishi, o'z ustida doimiy ravishda chidam va matonat bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Tahsil oluvchi hayratlana olishi, mag'rurlana olishi lozim, faqat shundagina u boshqalarni o'zining ijodiy ishi bilan hayratga solishi mumkin.

Uchinchidan, fan-texnikaning tezkor rivojlanishi, ilmiy-texnikaviy axborotning shunga o'xshash axborot uzatish va qayta ishlash tezligini oshirishga olib keladi, buning asosida esa hisoblash texnika siyotadi. Ta'limni individuallashtirmasdan, zamonaviy informatsion tizimlardan foydalanishni ko'z oldimizga keltirishimiz mumkin emas. Shuning uchun «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da «o'qitishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamdastirish tizimlarini ta'lim texnologiyasini vositalarni ishlab chiqish va o'zlashtirish» vazifasi qo'yilgan. Bu oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimlarida birdek dolzarb hisoblandi.

To'rtinchidan –ITT xususiyati muhandislik yechimlar turini keskin oshishi, materiallarning tez-tez almashinuvi, texnologik jarayonlar, mashinalar konstruktsiyasi, boshqarish tizimlarining avtomatlashtirish darajasining oshishi, ilmiy yutuqlar natijasini ishlab chiqarishga tatbiq etish muddatlarini kamayishi hisoblanadi. Masalan, telefon aloqasining ixtiro qilinishi bilan uni amalga oshirish orasida 56 yil o'tgan bo'lsa, radio uchun 35 yil, televizor uchun 14 yil, atom energiyasi uchun 6 yil, tranzistor uchun 5 yil o'tdi. Hozirgi paytda esa bu muddatlar odatda bir yildan oshmaydi. Shuning uchun mutaxassislar tayyorlovchi barcha tizimlar bir tomondan ulardan uzluksiz o'zgarib turadigan ishlab chiqarish texnika va texnologiya sharoitida zudlik bilan moslashuvni shakllanishiga yo'naltirilishi, ikkinchi tomondan ular bilimining harakatchanligi, tanqidiy fikrlashuv kasbiy faoliyatida ijodiylik va moslashuvchanlik kabi xislatlarga ega bo'lishi zarur. Bu esa zamonaviy muhandis va ishchining qiyofasidir.

Beshinchidan, jadallashayotgan ITTning ortib boradigan talablariga to'la javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'qitishni jadallashtirish, inson organizmining butun imkoniyatlarini, uning ongini o'qitishda ishga solish zarur. Bu esa o'quv jarayonida axborot berilayotganida, o'quv televideniya bilan foydalanishni taqozo etadi.

Oltinchidan, harqaysi odam tug'ilganidan boshlab alohida individ hisoblanadi, ya'ni harkimning o'ziga xos aqliy rivojlanishi, ta'lim

olishga qobiliyati bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda, zamonaviy o'qitish tizimining vazifasi insonning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinib turganidek, kadrlar tayyorlashning hozirgi predmetli (fanlar) tizimi pog'onama-pog'ona, uzluksiz isloh qilinishi lozim. Bu tizim fanlar orasida sun'iy to'siqlarni saqlab qolib, zamonaviy kasbiy ta'lim ehtiyojlariga tobora kamroq javob bermoqda. Bu masalalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan, zamonaviy talablarga ko'proq moslashgan o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari, jumladan, kadrlar tayyorlashning modul tizimidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bunga alohida e'tibor qaratilgan, unda ta'kidlanganidek, "yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish lozim"¹⁶.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari, bu kasbiy ta'limning hozirgi kuni va uning kelajagidir.

O'qitish jarayonida, pedagog texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan o'quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnika taraqqiyot jadallashgan davrda o'qitish samaradorligi, asosan, tinglovchining o'qitish jarayonidagi o'rni, pedagogning unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Bu yerda o'qitish texnologiyasining ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin: avtoritar va shaxsga yo'naltirilgan.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona subyekt sifatida namoyon bo'ladi, talablar esa faqatgina «obyekt» vazifasini bajaradi xolos. Bunda tahsil oluvchining tashabbusi va mustaqilligi yo'qoladi, o'qitish majburiy yo'sinda amalga oshiriladi. Odatdagi an'anaviy o'qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. Bunda, avvalo Ya.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktik prinsiplarga asoslangan o'qitishning guruh-dars tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanzugacha dunyoda eng ko'p tarqalgan o'qitishning guruh-dars tizimi, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

-yoshi va tayyorgarlik darajasi taxminan bir xil bo'lgan o'quvchilar sinfni (guruhni) tashkil etadi;

-sinf(guruh)yagonao'quvreja,yagonao'quvdasturlarvayagona mashg'ulotlar jadvali bilan shug'ullanadi;

-mashg'ulotlarning asosiy birligi dars bo'lib, u bitta fanga, bitta mavzuga bag'ishlanadi va ma'ruzachi tomonidan boshqariladi;

-o'quv kitoblari asosan uy ishlari uchun qo'llaniladi.

¹⁶Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. –Т., 1997. – Б.10.

An'anaviy o'qitish asosan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, shaxsning rivojlanishini ko'zda tutmaydi.

An'anaviy o'qitish asosini, Ya.A.Komenskiy tomonidan tuzilgan pedagogika tamoyillari tashkil etadi:

- ◆ ilmiylik;
- ◆ tabiatga monandlik (o'qitish rivojlanish bilan belgilanadi, ammo shakllanmaydi);
- ◆ uzviylik va tizimlik;
- ◆ o'zlashtiruvchanlik (ma'lumdan noma'lumga, soddadan murakkabga)
- ◆ mustahkamlik (takrorlash, takrorlash...)
- ◆ onglilik va faoliyat (qo'yilgan maqsadni bilgan va buyruqlarni bajarishga faol bo'lgan)
- ◆ nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;
- ◆ yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish¹⁷.

An'anaviy o'qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo'ravonlik pedagogikasi, o'qitishning tushuntiruv ko'rgazmali usuli, ommaviy o'qitish. An'anaviy o'qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo'ladi: tahsil oluvchi bu hali to'la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa—bu sardor, hakam, yagona tashabbuskor shaxs. Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda, o'quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart — sharoitlar yaratiladi¹⁸.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy prinsiplar xos bo'ladi:

-insonparvarlik, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash zo'ravonlikdan to'la voz kechish;

-hamkorlik, ya'ni pedagog va tinglovchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik;

-erkin tarbiyalash, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda tinglovchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

¹⁷Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T., 2009. – B.116.

¹⁸Avliyaqulov. N. X, MusayevaN.N. Pedagogiktexnologiya. – T., 2012. –B. 74.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

- pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi;
- har bir tinglovchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;

- Yuqori yetuk qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tinglovchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish;
- tinglovchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo'l qo'yish huquqi;
- o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi;
- Pedagog va tahsil oluvchi munosabatining asosi: ta'qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g'ayri insoniy hisoblanadigan majburlash pedagogikasidan voz kechishdir. Umuman olganda tarbiya jarayonida majburlashdan vozkechish mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda so'zsiz itoatkorlik xususiyatlarini shakllantiradi.

Oliy, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimi uchun o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin: ishbilarmonlik o'yinlari; muammoli o'qitish; tabaqalashtirilgan o'qitish; dasturlashtirilgan o'qitish; kompyuterlashtirilgan o'qitish; modulli o'qitish.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jadallashtirilgan davrda rivojlangan davlatlarda shakllantirilganligini inobatga olgan holda ular chuqur ildizlarga ega ekanligini ta'kidlash to'g'ri bo'lar edi.

Yunon faylasufi Suqrot o'z chiqishlarida savol va javob usulini ishlatar edi. Bu usul haqiqatni bilib olish uchun yordam berar edi.

Qadimiy Rim pedagogi M.F. Kvantilian har bir shogirdga e'tibor va diqqat bilan yondashishni tavsiya bergan edi.

O'rta asrlar sharqining buyuk olim va mutafakkirlar tomonidan yirik pedagogik meros qoldirilgan. Asrlar davomida shaxsga muhabbat va hurmat, unga yordamlashish xislatlari asosida sivilizatsiya shakllanib keldi.

II BOB. TARIX FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH

1. Tarix darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish

Pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishdan asosiy maqsad, o'qituvchi va talaba (o'quvchi) ning hamkorlikda belgilangan va ko'zlangan maqsadga erishishlari va o'rganilayotgan mavzu yoki bilimni oson va qulay tarzda o'rganish orqali bu ma'lumotlarni uzoq vaqt mobaynida esda saqlashdan iboratdir.

Tarix fanini o'qitishda ham boshqa fanlar qatori ma'lum bir yutuqlarga erishish, o'quvchilar faolligini oshirish va albatta, shu qatori o'qituvchining ham kasbiy mahoratini rivojlantirish eng asosiy maqsad hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qituvchidan fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik bilim, ko'nikma va malakani ham talab etadi. Ya'ni o'qituvchi qaysi texnologiya yoki metod qaysi mavzu uchun qulay va o'rinli ekanligini bilishi uchun, avvalo, shu texnologiyalar haqida kerakli bilimga ega bo'lishi muhim sanaladi¹⁹.

Pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga olib kirishni oldindan loyihalash lozim. Bunda joy va sharoitlarni ham hisobga olish zarur. Ba'zi texnologiyalarni qo'llash uchun sinf xonasida yetarlicha sharoit bo'lmasligi ham mumkin. Yana bir jihat pedagogik texnologiyalarni tanlashdan oldin o'quvchi-talabalarning bilim salohiyatini ham hisobga olish zarur. Dastlab ular uchun sodda va osonroq metodlarni dars jarayonida qo'llab, so'ngra ularda bu kabi darslarga ko'nikma hosil bo'lgach, metod va texnologiyalarning murakkabrog'idan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalarni tarix fanini o'qitishda qo'llash o'quvchi-talabalarda quyidagi xususiyatlarni rivojlantiradi:

- avvalo, ularni tarix faniga qiziqishlarini orttiradi;
- ularda mustaqil va erkin fikrlash ko'nikmalarini yanada shakllantiradi;
- mantiqiy va tezkor fikrlashga o'rgatadi;
- o'zlarini tahlil qilish va baholashga o'rgatadi;
- bilim sohasida o'zgalardan ortda qolmaslikka o'rgatadi;
- mushohadali bo'lishga o'rgatadi;

¹⁹Ziyomammedov B. Pedagogik mahoratasoslari. – T., 2009. – B. 150.

- ularda tahliliy- tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi;
- ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi;
- natija va maqsadga intilishning muhim ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lishadi;
- ulardagi tortinchoqlik o'rnini faollik degan muhim tushuncha egallaydi...

Pedagogik texnologiyalarning yuqoridagi kabi yutuqlarini sanab-sanog'iga yetish mushkulroq. Bu texnologiyaning bu kabi afzalliklari ta'lim sohasida o'z isbotini topishga ulgurdi va ta'lim sohasida u orqali ijobiy natijalarga ham erishib kelinmoqda.

Talaba ma'lumotlarni faqat eshitish orqali qabul qilsa, berilgan ma'lumotlarning o'rtacha 20 foizini o'zlashtiradi. Shu sababli agar ma'ruza faqat mavzuni og'zaki tushuntirish shaklida (an'anaviy) o'tilsa, talabalar darsda berilgan ma'lumotlarning 80 foizini esda saqlab qolmaydi va darrov unutishadi. O'rtacha odam bir minutda 800 tagacha so'zni eshitishi va tushunishi mumkin. Vaholanki, auditoriyadagi talabalar o'qituvchi nutqiga nisbatan 4 marta tez eshitish qobiliyatiga ega. Demak, og'zaki tushuntirish vaqtida vaqtning 75 % qismida talaba eshitmaydi, u bo'sh qoladi, agar o'qituvchi faqat og'zaki tushuntirib, ma'ruza qilsa talaba diqqatini yo'qotadi. Shu sababli ma'ruzani faqat o'qib berish yoki og'zaki tushuntirish shaklida olib borish samarasiz hisoblanadi. Agar talaba ma'lumotlarni bir marta o'zi o'qisa u 25 foiz ma'lumotni eslab qoladi. Demak ma'ruzada, talabalar oldida ma'ruza qilish bilan birgalikda, ulardan mavzuning asosiy joylarini dars davomida o'zlari o'qishlari talab etilsa, ma'ruza samarasi ortadi. Buning uchun slaydlar, tayanch iboralar, tarqatma materiallar zarur bo'ladi va ma'ruza davomida ulardan talaba faolligi ta'minlangan holda foydalaniladi. Agar berilayotgan ma'lumotlar ikki marta takrorlansa, talaba ma'lumotlarning 30 foizini eslab qoladi. Agar Siz ma'ruzada mavzuning asosiy, muhim joylarini ikki marta takrorlasangiz, o'zlashtirish faqat o'qib berishga nisbatan 10 foizga ortadi. Agar takrorlash slaydlar, o'quv-vizual materiallar asosida bajarilsa darsning samaradorligi yanada ortadi, ya'ni asosiy tayanch iboralar ham ikki marta takrorlanadi, ham talabalar tomonidan o'qiladi. Agar talaba yozib, o'qisa ma'lumotlarni 45 foizgacha o'zlashtiradi. Demak ma'ruzaning tayanch iboralarini ma'ruza davomida yozdirib borilsa, o'zlashtirish ikki marta ortadi. Talaba o'rtacha bir minutda 40 tagacha so'z yozishi mumkin. Lekin, maqsad faqat tez yozdirish bo'lib qolsa, natija etarli darajada samarali bo'lmaydi. Shuning uchun ma'ruzaning tayanch

iboralari yozdirilayotganda, talabaga diqqatini jamlab, tushunib yozishi uchun vaqt berish kerak, ya'ni yozdirilayotgan iboralarni to'xtab-to'xtab, sekin ifoda etish zarur. Ko'pchilik muhokama, bahs jarayonida ma'lumotlarning 60 foiziga yaqinini o'zlashtiradi, ya'ni o'quv jarayoni oddiy ma'ruza o'qishga nisbatan 3 marta samarali bo'ladi.

Agar ma'ruzada yuqoridagi uslublar (og'zaki tushuntirish, qaytarish, o'quv-vizual materiallar yordamida ko'rsatish, talabdan o'qishni talab qilish, tayanch iboralarni yozdirib borish) ma'lum bog'liqli ketma-ketlik asosida birgalikda joriy etilsa o'quv samarasi yanada ortadi. Talaba berilayotgan ma'lumotlarni hayotiy tajribasi orqali taqqoslasa, bilim amaliyot orqali etkazilsa, talabalarga doimiy ushbu materiallarni real hayotda kerak bo'lishi tushuntirilsa, mashg'ulotda mavzuni real hayot bilan bog'lab talabalarning faol fikr bildirishlariga sharoit yaratilsa, mavzu bo'yicha berilayotgan ma'lumotlarni talabalar tomonidan 80 foizgacha o'zlashtirishlariga erishish mumkin. Yaxshi pedagog o'rtacha bir minutda 170 tagacha so'z talaffuz etishi mumkin. O'rtacha talaba minutiga 400 tagacha so'zni o'qishi va tushunishi mumkin. Bu shuni bildiradiki, o'qituvchi ma'lumotlarni slaydlar ko'rinishida yoki tarqatma materiallar ko'rinishida tushuntirishdan oldin bersa, o'qituvchi tushuntirguncha talabalar ushbu materiallarni ikki marta tez o'qib ulguradilar. Talabalar o'zlari ma'lum miqdorda bo'lsada o'qib olgach, ma'ruzachining tushuntirishlariga kam e'tibor berishadi. Shu sababli, agar oldin tushuntirib, keyin o'quv-vizual materiallar orqali tushuntirish takrorlansa, eng yaxshi natijaga erishiladi. Ayrim pedagoglar o'qitishning interaktivuslublari deganda zamonaviy o'quv-vizual materiallar (oddiy, multimedia va animatsion slaydlar, tarqatma materiallar, ma'ruza matnlari, texnik vositalarning modellari, maketlari va b.)dan hamda zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, elektron doskalar va b.)dan foydalanish, ma'ruza matnlarini oldindan talabaga taqdim etib, talabaning darsga tayyor bo'lib kelishini ta'minlash kabilarni tushunishadi. Albatta bu to'g'ri fikr emas.

Interfaol yoki interaktiv metodlar deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;

- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Muhokama-munozara metodi. Bu interaktiv o'qitishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi va talabalarning ushbu mavzu bo'yicha turli xil bilim darajasi va tajribalari asosida o'rganiladigan masalaga qanday yondoshishi ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi muhokama uchun muammoli savolni yoki hayotdagi aniq bir vaziyatni belgilab, o'rta tashlaydi. Talabalarni esa mavzudan chetga chiqishlariga yoki ayrim faol talabalarni etakchi bo'lib, faqat ular fikr bildirishlariga yo'l qo'ymaydi, mumkin qadar barcha talabalarning faol ishtirok etishlariga ahamiyat beradi, talabalarni bir-birini fikrlariga hurmatsizlik bilan qarashlariga yo'l qo'ymaydi. Muhokama oxirida o'qituvchi fikrlarni umumlashtirib, o'z fikrini nazariy va amaliy isbotlab bayon etadi²⁰.

Tarix darslarida ushbu metoddan foydalanish yaxshi natija beradi. Ayniqsa ma'ruza darslarida ushbu metoddan foydalanilsa o'quvchilarni ma'ruzaga qiziqishi yanada ortadi. Darsda faqat o'qituvchi emas, o'quvchilar ham bahs-munozara asosida o'z fikrlarini bayon etish imkoniyatiga egabo'ladilar.

Jamoaviy muhokama yoki muammolar ro'yxatini tuzish metodi. Talabalarga biror bir masala, muammo yoki mavzu doirasidagi aniq bir vaziyat ustida o'ylab, ulardan muhokama qilish uchun g'oyalar, takliflar ro'yxatini tuzish talab etiladi. Ushbu uslubda muammoni o'qituvchi emas, balki talabalar o'ylab topadi.

Tarix fanida esa "Temuriylar saltanatining tez parchalanib ketish sabablari nimada edi?" mazmunidagi savolni qo'yib, saltanatning tez parchalanish sabablarini keltirib, "qanday siyosat yuritilganda davlat tez parchalanmas edi?" degan savolga ham javoblar ham topish lozim bo'ladi. Bu metod talabalarda tanqidiy fikrlash, tarixiy voqea-hodisaga to'g'ri baho berish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlashmetodi. Dars bahs-munozara shaklida tashkil etiladi. Talabalarga muammoli savol beriladi va har bir talabaning ushbu savol bo'yicha mustaqil fikri tinglanadi. Bunda talabalarda mavzuni o'zlashtirishlari bilan bir qatorda:

²⁰Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар. – Т., 1999. – Б., 34.

- o'z fikrini erkin bayon qilish;
- boshqalar fikrini tinglash va o'rganish;
- boshqa kishi fikriga befarqlik bilan qaramaslik;
- o'z fikri bilan boshqalar fikrini taqqoslash;
- muammo bo'yicha to'g'ri echim (qaror) qabul qilish kabi hislar shakllanadi. Tanqidiy fikrlash uslubining so'nngi bosqichida talabalar tomonidan bildirilgan turlicha fikrlar qaytadan baholanadi va mutonosiblik aniqlanadi.

Rolli o'yinlar. Faol talabalar tanlab olinadi va ularga mavzuga oid hayotiy vaziyatlarda rol o'ynash talab etiladi. Bu uslubda o'qitish jarayoni uch bosqichda, ya'ni vaziyat bo'yicha rol o'ynash, vaziyatni kuzatish, vaziyatni tahlil qilish va o'z echimini qabul qilish asosida amalga oshiriladi. Rolli o'yin uchun mavzu tanlashda ishlab chiqarishda talaba duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar olinadi. Rol orqali talaba o'zining kelajakdagi faoliyatini ko'z oldiga keltiradi. Ushbu uslub mashg'ulot davomida o'zgaruvchan bo'lishi kerak. O'qituvchi mashg'ulot davomida savol berib, holatni o'zgartirishi mumkin. Natija-qisqa vaqtda samarali o'zlashtirishga erishish talab etiladi²¹.

Rolli o'yinlarda talabalar quyidagi bilim, uquv va ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalar ustida amaliy muloqat qilish, tajribasini orttirish;
- jamoadagi bir xodim xarakterini yoki fikrini boshqa kishiga ta'sir etishini anglash;
- vaziyatlar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish va o'z fikrini bayon eta bilish;
- vaziyatni tahlil qila olish;
- vaziyatdan chiqish rejasini va strategiyasini ishlab chiqishni bilish.

Majlis rolli o'yin darsi, majlis mavzusi: Parij kommunasi. Quyidagivaziyat modellashtiriladi: agar kommunada o'z faoliyatini baholash, ya'ni 1871-yil may oyida hisobotlar va saylovlarni o'tkazish imkoniyati bo'lganda qanday bo'lar edi?

Sinf Kommuna tarafdorlari va unga qarshilarga bo'linadi (arshilar lagerida anarxistlar, prudonistlar, blankistlar, yakobinchi bo'lmagnlarning mayda guruhlari). Proletar diktaturasi tomonidan qilingan har bir qadam muhokama qilinadi. Chqishlar asosli, isbotlarning yagona zanjirini hosil qilishi lozim. Majlis quyidagicha

²¹ Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T., 2009.– B. 156.

qaror qabul qiladi: ... Kommunaning muvaffaqiyatini tan olish, shu bilan birga xato deb hisoblash, kun tartibining ikkinchi masalasi – Kommuna saylovlari. Soʻz deputatlikka daʼvogar shaxslarning vakolatli shaxslariga beriladi. ular toʻrtta – Varlen, Frankel Domburovskiy, Luiza, Mishel. Har bir nomzod atrofida bahslar qiziydi. Bunday darsning maqsadi: Parij kommunasining ijtimoiy – iqtisodiy siyosatini batafsil tahlil qilish, uning arboblari bilan tanishtirish.

Yuqoridagi majlis rolli oʻyin darsini oliy oʻquv yurtlarining seminar darslarida qoʻllash maqsadga muvofiq.

“Aqliy hujum” metodi. Aqliy hujum uslubini birinchi boʻlib bundan bir necha oʻn yillar oldin F.Osborn Aleks reklamasi orqali Batter, Barton, Dastin va Osborn firmalarida qoʻllagan. Keyinchalik ushbu uslubdan yirik xalqaro korporatsiyalar ham foydalana boshlashgan. Hozirgi kunda koʻpgina rivojlangan davlatlarda, ushbu uslub maʼmuriy boshqarishda va nodavlat tashkilotlarda oddiy odatiy holga aylandi. Respublikamizdagi taʼlim muassasalarida ushbu uslubdan 2000-yillardan boshlab foydalanila boshlandi. Ushbu uslubning mohiyati juda oddiy. Talabalar mavzuga oid muammoli savol yoki masala bilan tanishtiriladi. Masala boʻyicha talabalar oʻz gʻoya va fikrlarini bildirishlari uchun aniq vaqt ajratiladi, masalan - 10 minut. 10 minut ichida bildirilgan barcha gʻoyalar va fikrlar yozib boriladi. Bildirilayotgan gʻoyalar baholanmaydi, auditoriyada shovqin boʻlishiga, ayrim talabalaraning boshqa talaba fikri ustidan kulishi yoki uni baholashiga ruxsat berilmaydi. Dastlabki maqsad-son! Gʻoya qancha koʻp boʻlsa shuncha yaxshi. Alohida faol talabalarning etakchilik qilishlariga, yaʼni faqat bir necha talaba fikr bildirishlariga yoʻl qoʻyilmaydi. Mumkin qadar barcha talabalar fikrini bayon etishlariga imkoniyat yaratiladi. Vaqt tugagach talabalarga ekranda yozilgan barcha fikrlarni oʻqib, mushohada qilishlariga vaqt ajratiladi. Keyin oʻqituvchi yordamida barcha gʻoyalar guruhlariga boʻlinadi va ular tahlil qilinib, eng maqbul variant tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda taʼlim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati mavjud boʻladi, shuningdek taʼlim oluvchilarda muloqot qilishva munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar oʻz fikrini faqat ogʻzaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish koʻnikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi taʼlim oluvchilarda turli gʻoyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod taʼlim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

-natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;

- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;

- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;

- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;

-ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

-ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;

-ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi- ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ush bu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtiroketish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi²².

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha talim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. guruhlar belgilanadi.

Ta’lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalligi:

-o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;

-vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

²² Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat . – T., 2006. –B. 115.

-barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;

-o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari:

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;

-barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;

-guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;

-guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

“Yalpi fikriy hujum” metodi. Ushbu metod J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni 20 nafardan 30 nafargacha bo'gan sinflarda qo'llash mumkin. Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun xizmat qiladi²³.

Talabalarni 5 yoki 6 nafardan guruhlariga bo'lib, 15 daqiqa ichida o'rtaga tashlangan savol yoki muammo yechish topshirig'i beriladi. Savol va shartga asoslangan muammo yuzasidan har kim o'zining mustaqil fikrini bildirishi, masalaga har kim o'zicha ijodiy yondoshishi mumkin. Topshiriq va vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot o'qtuvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qtuvchi berilgan topshiriqlarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

FSMU texnologiyasi. Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikriga boshqalarni ishontirishga, ochiq-oshkora bahslashishga, egallagan bilimlarni tahlil qilishi, ularni qay darajada egallaganligini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Ushbu texnologiya tinglovchilarga qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etish tartibida amalga oshiriladi.

F – fikringizni bayon eting.

S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M- ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

FSMU texnologiyasida mavzu bo'yicha savol qo'yiladi. Talabalarga FSMU texnologiyasining mohiyati va ularning vazifasi tushuntiriladi.

²³ Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T., 2006. –B.151.

Topshiriqni bajarish uchun aniq vaqt belgilanadi, masalan 15-20 minut. Topshiriqni har bir talaba shaxsan bajarishi talab etiladi. O'qtuvchi talabalar faoliyatini kuzatadi, ularning savollariga javob berib boradi, yo'naltiradi, maslahatlar beradi. Kuzatuv davrida to'g'ri qaror yoki fikr yozayotgan talabalarni aniqlaydi. Javoblarni yig'ib olib, kuzatuv davrida nisbatan to'g'ri deb topilgan talabalarning fikrlarini o'qiydi, qo'shimchalar kiritib, savol bo'yicha to'liq ma'lumot beradi. Ushbu texnologiya tarix darslarida munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv-seminari haqidagi fikrlarni bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin.

“Bumerang” texnologiyasi. Mazkur texnologiyada talabalarga turli xil ko'rinishdagi (ochiq, yopiq, ko'ndalang) savollar beriladi. Talabalarda tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi, o'z g'oya va fikrlarini og'zaki yoki yozma shakllarda bayon etish qobiliyatlarini shakllantiradi. Ochiq savollar muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas. Yopiq savollar oldindan “ha” yoki “yo'q” usulidagi to'g'ri, qisqa javoblarni berishni ko'zda tutadi. Ko'ndalang savollar bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollardan iborat bo'lib, bu o'ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni aniqlashtirish, boshqalar fikrini aniqlash va muayan qarorlar qabul qilishga imkoniyat yaratadi. Ko'ndalang so'roq paytida munozaraga kirishilmaydi. Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib etish, erkin egallashga yo'naltirilgan²⁴.

Tarix darslarida bu metoddan tez-tez foydalanish o'quvchilar faolligini oshiradi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham savol-javob jarayonida ishtirok etib yaxshi natijalarga erishadilar.

BBXB (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim) metodi. Ushbu texnologiyada har bir talabaga shaxsiy topshiriq berilishi mumkin. Topshiriq muayan mavzu bo'yicha savollar tarzida beriladi. Talaba ushbu savollar bo'yicha nimalarni bilishini, bilishni xohlashini va mashg'ulot davomida nimalarni qo'shimcha ravishda bilib olganligini BBXB jadvaliga yozadi. Bunda tayanch iborlar o'qituvchi tomonidan berilishi ham mumkin.

²⁴ Boynazarov F., Mavlonov H., Uluqov N. Yangi pedagogik texnologiya asoslari. – T., 2007. –B. 47.

“Veer” texnologiyasi. Murakkab, muammo xarakterdagi mavzularni o’rganishda qo’llaniladi. Bu texnologiyada mavzu bo’yicha dastlab to’liq va qisqa ma’lumot beriladi. Keyin mavzu bo’yicha asosiy muammoli savollar ajratilib, alohida kichik guruhlarda muhokama etiladi, ya’ni muammoning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari aniqlanadi²⁵.

Bu interaktiv texnologiyani tarix darslarida qo’llashtanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni shakllantirib, talabalarga o’z fikrlarini og’zaki yoki yozma bayon etishlariga, himoya qilishlarisha sharoit yaratadi. “Veer” texnologiyasi yordamida mavzuning alohida savollari bo’yicha kichik guruhlarining, har bir talabaning faol ishtirok etishi ta’minlanadi va ularning ushbu savol bo’yicha bilimlari baholanadi.

Pinbord texnikasi. Pinbord inglizcha Pin- mahkamlash, board-doska so’zidan olingan bo’lib, muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirib, guruhlashni amalga oshirish, jamoa tarzda yoki yagona holda qarama-qarshi fikrlarni shakllantirishga imkon yaratadi. Dastlab o’qituvchi muammoli savolni o’rtaga tashlaydi va talabalardan o’z fikrlarini bayon etishni so’raydi. To’g’ridan-to’g’ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil etadi. Faol talabalar rag’batlantiriladi. Keyin fikrlar tahlil qilinib, muhokama qilinadi, baholanadi va eng samarali fikr tanlanadi. Ushbu tayanch xulosaviy fikr alohida qog’ozlarga va doskaga yoziladi (mahkamlanadi). Ushbu texnologiyada muammoli savol bo’yicha barcha fikrlar jamlangach, guruh namoyandalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- xato yoki takrorlanayotgan fikrlar olib tashlanadi;
- bahsli fikrlarga aniqlik kiritiladi;
- fikrlar ma’lum belgilar bo’yicha tizimlashtiriladi, guruhlariga ajratiladi;
- ularning o’zaro munosabatlari chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida belgilanadi. Jamoaning yagona yoki qarama-qarshi fikrlari ishlab chiqiladi.

“Tushunchalar tahlili” metodi. Mazkur metod o’quvchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o’zlashtirish darajasini aniqlash, o’z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo’llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

1. Ishtirokchilar mashg’ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

²⁵ Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – S., 2001. –B. 41.

2. O'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

3. O'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;

4. Belgilangan vaqt yakunigayetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

5. Har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Quyida 1-jadvalda O'zbekiston tarixining o'rta asrlar tarixiga oid tushunchalarni o'rganishda, "Tushunchalar tahlili" metodining namunasi keltirilgan.

1-jadval

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'no anglatadi	Qo'shimcha ma'lumot
Dehqon		
Chokar		
Shahriston		
Rabot		
Islahot		
Hadis		
Rasadxona		
Madrasa		
Karvonsaroy		

“Brifing” metodi. (inglizcha “brief”-qisqa ma'nosini anglatadi) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press-konferensiya.

O'tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.

2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o'yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag'ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo'ladi. O'quvchilar yoki

tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o'tkazishda ham foydalanish mumkin²⁶.

Tarix darslarida esa biror mavzu yakuni bo'yicha muammoli savolni, ma'lum tarixiy voqeaning sabab va oqibatlarini tahlil qilishda ushbu metoddan foydalanish yaxshi natija beradi.

“Skarabey” texnologiyasi. O'qitishning interaktiv texnologiyalaridan biri bo'lib, undan o'quv materiallarini o'rganishning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu texnologiyada talabalar tajribasidan foydalaniladi, reflektiv kuzatishni amalga oshiriladi, faol ijodiy izlanish va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Ushbu texnologiya quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi:

-dastlab o'quv mavzusining mohiyati, tuzilishi va mazmuni “aqliy hujum” texnologiyasi asosida belgilanadi;

- mavzu bo'yicha o'rganiladigan savollar o'rtasidagi aloqalar, bog'liqlik, asosiy tushunchalar aniqlanadi;

- mavzuning har bir savoli chuqurroq o'rganiladi, mavzu bo'yicha talabalarda yangi g'oyalar paydo bo'lishiga imkoniyat yaratiladi;

- o'qituvchi mavzuni yakunlab, olingan bilimlarni mustahkamlaydi.

“Zig-zag” metodi. Ushbu metod oquvchilar bilan guruh asosida ishlash, mavzuni tezkor va puxta o'zlashtirishga xizmat qiladi. Metodning afzalligi uning quyidagi jihatlari bilan belgilanadi:

1) o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi;

2) mavzuni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqt teжалadi²⁷.

Dastlab sinf o'quvchilari 5 yoki 7 guruhga bo'linadi. Yangi mavzuni yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5-7 qismga ajratiladi. Har bir guruhga mavzuning muayyan qismi beriladi va uni o'rganish vazifasi topshiriladi. Belgilangan vaqt mobaynida guruhlar matn ustida ishlaydilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi va ular o'rganilgan matnga oid asosiy ma'lumotlarni guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Liderlarning fikri guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlar o'zlariga berilgan matni puxta o'zlashtirganlaridan so'ng matnlar guruhlararo almashtiriladi. Bu bosqichda ham yuqoridagi faoliyat takrorlanadi. Shu taxlitda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi.

²⁶Бойназаров Ф., Мавлонов Х., Улуков Н. Янги педагогик технология асослари. – Тошкент, 2007. – Б.39.

²⁷Толіпов О.Қ., Усмонбойева М. Педагогик технологияларнинг таъбиқіясослари (о'қувқо'лланма). –Т.: Fan, 2006. – В. 171.

Tarix fanida ushbu metoddan foydalanilganda o'quvchilarning guruh bilan hamjihatlikda ishlashlari qobiliyatlari kuchayib, tarix faniga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.

Hamkorlikda o'qitish metodi. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi-biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir. Ushbu metoddan foydalanish o'quvchilarda axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko'nikmalar hamkorlikda o'qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Hattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi²⁸.

Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari betakror g'oyalarni ko'proq ishlabchiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo'lgan har xil o'quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

Bir vaziyatda olingan bilimlarni boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har o'quvchi mustaqil bajara olishi mumkin.

Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, o'quvchilarning o'rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolligi ortib boradi.

Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari:

-hamkorlikda o'qiyotgan o'quvchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi;

- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti;

-axborot va «moddiy resurslar», ya'ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar o'zaro almashinadi;

- o'quvchilar o'rtoqlari bergan ma'lumotlarni o'zlashtiradi va qo'llashga harakat qiladilar. Og'zaki tushuntirishlar, axborotni o'ylab ko'rish va umumlashtirish, o'z bilimlari va ko'nikmalarini boshqalarga uzatish bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq

²⁸SayidahmedovN. Yangipedagogiktexnologiyalar (nazariyavaamaliyot). – T.: Moliya, 2003. – B. 56.

anglab o‘zlashtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo‘shishga olib keladi;

-bolalar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o‘rganadi. Intellektual maydondagi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qayta anglash, o‘rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko‘p foydali sifat va ko‘nikmalarni shakllantiradi;

-o‘quvchilar yaxshiroq o‘qishga intilishda bir-biriga ko‘maklashadi. O‘qishda o‘rtoqlariga yordam berayotgan o‘quvchi o‘ziham sezilarli darajada yaxshiroq o‘qiydi;

-aniq ifodolangan motivatsiyaga ega. Bilimlarni o‘zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;

-o‘zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a‘zolari o‘z o‘rtoqlariga ishonadilar va o‘zlarini o‘rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O‘zaro ishonch - har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Guruhda topshiriqni bajarish yo‘riqnomasi:

❖ Guruh liderini saylang.

❖ Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.

❖ Topshiriqni bajaring.

❖ Taqdimotga tayyorlaning.

❖ Taqdimot o‘tkazing.

❖ Guruh ishini baholang.

1-bosqich

Guruh ishjoyini tayyorlash - stol va o‘rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta‘lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a‘zosi bir joyda bo‘lishlari va bir-birlarini ko‘rishlari va eshitishlari kerak, zarur o‘quv qo‘llanmalar barchaga yetarli bo‘lishi kerak.

2-asosiy bosqich

1. Ta‘lim oluvchilarni guruhlariga taqsimlash-tanlangan kichik guruhlariga birlashtirish yo‘li asosida ta‘lim oluvchilarni guruhlariga bo‘ladi.

2. O‘quv topshiriqlarini tarqatish-muammoli va ziyatni taklif qiladi, ta‘lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo‘li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma‘lum

qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

3. O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

4. Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

5. Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi; hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

6. Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish-o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, vasamimiy tanbeh qiladi.

7. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezonini va ko'rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat -yakuniy bosqichi

Yakun yasash natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi quyidagilardir:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtainazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.

Yuqorida keltirilgan interaktiv metodlarni tarix darslarida qo'llash orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirib,

o'zlashtirishda samaradorlikka erishish mumkin. Lekin afsuski O'zbekistondagi ko'pgina maktab va oliy o'quv yurtlarida ushbu texnologiyalardan kam foydalaniladi, an'anaviy dars o'tish uslubi hukmronlik qilib kelmoqda.

2. Tarix darslarini tashkil etishda grafik organayzerlar texnologiyasidan foydalanish

Grafik organayzerlar (tashkil etuvchi) texnologiyasi – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasidir. Bunday texnologiyalardan tarix darslarida foydalanish juda qulay bo'lib, darslarning samarali va qiziqqarli o'tilishiga sabab bo'ladi. Bunday texnologiyalar ma'lumotni qanday o'rganish va taqdim etishiga ko'ra bir necha turga bo'linadi:

1. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish, tarkibiy bo'lib chiqish o'rganilayotgan tushunchalar (voqea hodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish usul va vositalariga ko'ra (Klaster, Toifalash jadvali, Inset jadvali).

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalariga ko'ra (T- jadvali, Venn diagrammasi).

3. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalariga ko'ra (“ Nima Uchun”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari, “Qanday”iyerarxik diagrammasi, “Kaskad” tarkibiy mantiqiy sxema)²⁹.

Klaster (to'plam, bog'lam) metodi. Pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemolol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli g'oyalar o'rtasidagi to'g'risidagi fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodianiq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish insonmiya faoliyatining ishlash tamo-yili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda chuqur o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

²⁹Xamidov A. Yangi pedagogik texnologiyalar o'quv qo'llanma. –T., 2004. – B. 67.

Stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan (1991) Klaster metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi ³⁰.

Klasterlarni tuzish qoidalari:

1. Miyangizga nima kelsa shuni yozib boring. Fikr sifatini muxokama qilmang: shunchaki ularni yozib boring.

2. Yozuvda mujassamlashgan orfografiyaga va boshqa omillarga e'tibor bermang.

3. Berilgan vaqt tugamaguncha yozishni to'xtatmang. Agar fikrlarning kelishi to'xtab qolsa, unda boshqa fikr kelgunicha qog'ozga rasm chizib turing.

4. Iloji boricha ko'proq bog'lamlarni chizishga urinib ko'ring. Fikrlar sonini, oqimini va ular orasidagi bog'liqlikni chegaralamang.

Insert jadvali. Talabalarda ma'ruzalar va mustaqil ta'lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma'lumotlarni tizimlashtirishni, uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad qilish, qabul qilinayotgan ma'lumotlarning tushunarligini nazorat qilish, avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog'lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu sababli, ushbu uslub mavzu bo'yicha rejadagi mashg'ulotlar o'zlashtirilgach, talabalar mavzuga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgach qo'llaniladi³¹.

O'qituvchi mavzuning aniq mazmun va mohiyatini yoritib beradi va dars yakunida talabalarga ushbu mavzu bo'yicha "Insert" jadvali asosida uyda mustaqil ishlashlari uchun topshiriq beradi. Talabalar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o'z bilimlari, real hayotiy tajribalari bilan taqqoslaydi, mavzu bo'yicha mustaqil ishlab, yangi ma'lumotlar oladi, ularni matnda qo'yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi. Matn bilan ishlashda o'quvchilar yoki qatnashchilarga quyidagi 2-jadvalda keltirilgan maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

³⁰ Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T., 2006. – B. 116.

³¹ Shodiyev N. Yangi peagogik texnologiyalar. – Samarqand, 2001. –B. -54.

2-jadval

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak			
“+”bu ma’lumot men uchun yangilik			
“ – “ bu fikr yoki ma’lumotga qarshiman			

T- jadval texnologiyasi. Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi. Agar o‘quvchilar yozilgan fikrga qo‘shilsalar, birinchi ustunda “+” aks holda uchinchi ustunda “ – ” belgisini qo‘yadilar³².

O‘qituvchi: Yangi mavzuni bayon qiladi va o‘quvchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni beradi;

-topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so‘raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;

-vaqt tugagach o‘quvchilardan izohlarsiz o‘z fikr-mulohazalarini o‘qib eshittirishlarini aytadi;

-barcha xulosala rtinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi;

-reglamentga rioya qiladi

Kutiladigan natija: O‘quvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o‘zlashtiradi, darsning mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

“Venn diagrammasi”. Ta’lim mazmunini tahliliy yondashuv asosida obyektlarning o‘ziga xos va o‘xshash xususiyatlarini tahlil qilish orqali o‘quv materialini o‘zlashtirishga va ko‘nikmalarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan metoddir. Tizimli fikrlash, taqqoslash solishtirish ko‘nikmlarini rivojlantiradi³³.

Dastlab bir-biriga tutashgan 2 aylana chiziladi. O‘quvchilar 3 ta guruhga bo‘linadilar. Birinchi va ikkinchi guruhlar obyekt yoki voqea-

³² Xamidov A. Yangi pedagogik texnologiyalar (o‘quv qo‘llanma). T.:2004. – B. 114.

³³Boynazarov F., Mavlonov H., Uluqov N. Yangi pedagogik texnologiya asoslari. –T., 2007.–B. 15.

hodisa, jarayonning farqli tomonlarini yoritib aylana ichiga yozsalar 3-guruh mavzuning o'xshash tomonlarini yoritadilar. Ma'lumotlar kiritilgandan so'ng o'qtuvchi bilan birgalikda muhokama qilinadi.

Tarix darslarida ushbu metodni qo'llash orqali tahsil oluvchilarda dars mazmuniga tahliliy yondashuvni, o'rganilayotgan tarixiy jarayonlarning o'ziga xos va o'xshash xususiyatlarini bir-biriga qiyoslash, taqqoslash orqali tahlil qilish, mustaqil fikrlash kabi ko'nikmalarni takomillashtirishga erishiladi.

“Baliq skeleti” metodi. Ushbu metod bir qator muammolarni va uni yechish imkoniniberadi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi³⁴.

O'quvchilar dastlab chizmani tuzish qoidalari bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda baliqning yuqori suyagida hal etilishi kerak bo'lgan muammolar yoki savollar yoziladi. Baliqning pastki suyagida esa ushbu muammolarning yechimi yoki savollarning javobi keltiriladi. Topshiriqlar bajarib bo'lingandan so'ng taqdimot qilinadi.

“Nima uchun” sxemasi - muammoning dastlabki sabablarini aniqlashbo'yicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi³⁵.

“Nima uchun?” sxemasini tuzish qoidalari:

1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.

2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjiri to'g'ri chizig'limi, to'g'ri chizig'li emasligini o'zingiz tanlaysiz.

3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.

Sinkveyn metodi. Sinkveyn so'zi fransuzcha bo'lib “5 qator” ma'nosini bildiradi. Sinkveyn ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish) ga yordam beradigan usul bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtainazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni birnechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi³⁶.

³⁴Raximov B. X. va b. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. –T., 2009. – B. 95.

³⁵Azizxo`jayeve N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat asoslari. – T., 2006. – B. 114.

³⁶ Azizxo`jayeve N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari.– T., 2006. –B. 116.

Metodni qo'llash jarayonida talabalardagi tarqoq axborotli jarayonlar asta sekin bosqichma-bosqich yo'naltirilgan axborotli jarayonga aylantirib boriladi. Ya'ni, o'rganilmagan bilimlar mavzuni o'rganish davomida o'zlashtiriladi, muayyan obyektiv voqelik to'g'risida yakdil fikrga kelinadi. Sinkveyn orqali talabalar o'z fikrlarini to'plash, ularni ixcham ifodalash, turli mulohazalarni sintezlash va mavzu bo'yicha to'g'ri xulosalarni takomillashtirishga o'rganishadi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).

2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi. (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi. (4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).

5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga sinonim so'z yoziladi).

Ushbu metoddan tarix fanini o'qitish jarayonida foydalanish juda foydali bo'lib, o'quvchilar bu metoddan ko'proq foydalanilgani sari mavzu yoki tarixiy shaxs haqida tezkor fikrlab xulosa chiqaradilar.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharoitida, mamlaktimiz ta'lim tizimi rivojlanayotgan hozirgi davrda buyuk kelajagimizning vorislari bo'lmish yosh avlodga, jumladan, maktab o'quvchilariga tarix fanidan ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularning bilish faolligini oshirish orqali ravon nutqini ta'minlash, buning uchun tarix fani o'qituvchilari malakasini ilg'or, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida oshirish vazifasi paydo bo'ldi.

Har bir pedagog xodim o'z kasbiy mahoratini oshirib borishi, buning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik, psixologik va boshqa jihatlarini puxta o'rganishga harakat qilish, o'zi ta'lim berayotgan muassasadagi o'quvchilar qobiliyati va salohiyatidan kelib chiqib eng muvofiq bo'gan pedagogik texnologiyalarni to'g'ri qo'llay olishi zarur.

Mazkur uslubiy qo'llanmada ilg'or pedagogik texnologiyalarni darslarga tadbiq etish samaradorligini ta'minlovchi vosita, usul va metodlarni nazariy va amaliy jihatdan isbotlashga harakat qilindi. Tarix darslarida maktab o'quvchilarining bilish faoligi va qiziqishini oshirishga xizmat qiladigan turlicha pedtexnologiyalar, ko'plab interfaol usullarni qo'llash va ularning ijobiy natijalari ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarni uzluksiz ta'lim jarayoniga tatbiq etish va o'rganish maktabini yaratgan N.N.Azizxo'jayeva va boshqa pedagoglarning ilmiy ishlari, asarlari o'rganildi.

Faollik o'quvchi faoliyatining muhim belgisi bo'lib, bilish jarayoni uning qay darajada namoyon bo'lishiga bog'liq. Faollik darajasi, birinchidan, o'quvchida bilishga qiziqish, qat'iylik, mustaqillik kabi xususiyatlarning mavjudligi bilan belgilansa, ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini faollashtirish maqsadida yaratilgan shart-sharoit, tanlangan vositalarning samaradorligi bilan o'lchanadi.

Xullas, tarix darslarida maktab o'quvchilarining bilish faolligini oshirish yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz quyidagi xulosalarga olib keldi:

Talabalarning faolligini oshirishga muvaffaqiyatli ravishda erishish va amalga tatbiq etish ikki yoqlama jarayon bo'lib, u ham o'qituvchi, ham o'quvchi faoliyati bilan bog'liq.

I. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan talablar:

1. Tarix o'qituvchisi o'quvchilarning qobiliyatlari darajasini bilsagina, ularning bilish faolligini oshirishga erisha oladi. Buning uchun

o'quvchilar tarix fanidan darslikda berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirib olishlari, mavzu yuzasidan o'z fikrlarini erkin bayon eta olishlari, berilgan topshiriqlarni osonlikcha bajarishlari zarur.

2. Tarix darslarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga erishish uchun o'qituvchi muayyan shart-sharoitlarni vujudga keltirishi kerak. Tarixnibilishga bo'lgan motiv (ichki turtki)larni tarbiyalash, ta'limning eng maqbul usullarini ishga solish ana shu shart-sharoitlar jumlasiga kiradi.

3. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish o'qituvchi tomonidan qator metodik omillarni ham ishga solishni taqozo etadi. Tarix darslarida ta'limning eng samarali metodini tanlash, muammoli ta'lim imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish, o'quvchilarning turli sharoitlarda ravon

nutq yuritishini ta'minlash, o'qish va o'qiganlaridan to'g'ri xulosa chiqarish malakasini rivojlantirish kabi faollik prinsipini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'qituvchi amalga oshirishi zarur bo'lgan bu tadbirlar o'quvchining fikrlashi, tarixiy hodisalarining mohiyatini anglashi, ijodiy faoliyat ko'rsatishiga zamin yaratadi.

II. O'quvchilar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan talablar:

1. Ta'lim jarayoni faqat o'qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon emas, u o'quvchilar faoliyati bilan ham chambarchas bog'langan. O'quvchining o'z-o'zini boshqarishi natijasida o'quv jarayoni faollashadi. Tarix darslarida o'quvchining o'z nutqini o'zi nazorat qilishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, topshiriqlarni bajarishda ishtirok etishi o'quvchi faolligini oshiradi va uni amalga tatbiq etilishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

2. O'z faoliyatini o'zi boshqarishga erishish uchun o'quvchi tarix fanidan berilgan mavzularni o'zlashtirib borishi, faqatgina darsliklarda keltirilgan ma'lumotlar bilan cheklanmay tarixiy-ilmiy, badiiyadabiyotlarni o'qishi kerak. Tarixiy hodisalarni taqqoslab, to'g'ri fikr yurita olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Shuni ham aytib o'tish kerakki aksariyat ta'lim muassasalarida maktablarda hattoki oliy o'quv yurtlarida darslar hamon eski an'anaviy usullarda o'tilmoqda. Maktablarda o'quvchilar tarixda bo'lib o'tgan voqea-hodisalarning mohiyati haqida fikr yuritib, xulosa chiqarish emas, faqatgina ushbu voqea-hodisalarni o'qish va yodlash bilan cheklanib qolmoqdalar. Tarix fani o'qituvchilari ham o'quvchilardan tarixiy sanalar, atamalar, jarayonlarni o'zini so'rash bilan cheklanmay,

o'quvchilarning tarixiy jarayonga nisbatan o'z mustaqil fikrlarini ham so'rashi lozim. Tarix fanini o'qitishdan maqsad ham o'tmishda o'tgan voqealarning mohiyatini o'rganib, to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatishdir. Bunday maqsadga erishish uchun dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni hamtobora ko'proq qo'llash lozim, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash orqali o'qituvchining haqiqiy o'qtuvchilik faoliyatiga o'tishi, ya'ni u faqatgina o'quvchini o'qitishi emas, o'quvchilarning bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish bo'yicha qiyin mehnatiga rahbarlik qilish, ularga qulay, oson, maqsadga tez yetkazadigan va samarali yo'l-yo'riqlar, usullarni to'g'ri tanlab ko'rsatishi va amalda samarali qo'llashiga erishishdir. Zero ingliz faylasufi Gerbert Spenser aytganidek : “ Ta'limning buyuk maqsadi bilim berish emas, balki xatti-harakatga o'rgatishdir.” Bugungi kunda ana shu maqsadga erishish yo'lida pedagogik texnologiyalar asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Asos adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi Qonuni // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "Sharq" nashriyot matbaa-konserni. 2020-yil.

2. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо етамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.

3. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 107 б.

4. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – хар бир рахбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 107 б.

5. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 300 б.

6. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.

7. Каримов. И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент, 1998.–31 б.

8. Каримов И. А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

9. Каримов И.А.Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – 144 б.

II. Adabiyotlar:

10. Avliyaqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2012. – 207 b.

11. Avliyaqulov N.X., Namozova N.I. Monografiya. Muammoli o'qitish texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiyalar, 2008. – 80 b.

12. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jam'armasi nashriyoti. 2006. –200b.

13. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: Молия, 2002. – 158 с.

14. Boynazarov F. Mavlonov H. Uluqov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Falsafa va huquq institute nashriyoti, 2007. – 56 b.


15. Беспалко В.П. Слагаемые педагогическое технологии. –М.: Наука,1989. – 192 с.
16. Выготский Л. С. Педагогическая психология. –М.: 1996. – 234 с.
17. Ziyomammedov B. Pedagogika. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. –T: “Turon-Iqbol”. 2008 yil. – 112 b.
18. Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: “Tib-kitob”, 2009. -184 b.
19. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T., 1999. – 98 b.
20. Mavlonova R., Arabova M., Pedagogik texnologiya (metodik qo‘llanma) –T.: 2008. – 47 b.
21. Mavlonova R.A., Arabova M., Salohiddinova G‘. Pedagogik texnologiya. –T.: “Fan”nashriyoti. 2008. – 123 b.
22. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000. –136 b.
23. Omonov H.T. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.:Iqtisod- moliya, 2009. – 238 b.
24. Raximov B.X. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. –T.: Fan va texnologiyalar, 2009.– 124 b.
25. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: Ta‘lim markazi, 1999.– 55 b.
26. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). –T.: Moliya, 2003. –130 b.
27. Xamidov A. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2004. – 230 b.
28. Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Samarqand. 2001. – 88 b.
29. Tolipov O‘. Tajriba sinov ishlarida yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta‘limi, – 1999. – № 2. – B. 34.
30. Tolipov O‘. O‘qtuvchilar tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalar // Xalq ta‘limi, 2000. – № 2. –B. 26.


III. Internet ma‘lumotlari:

31. [http // edu.uz](http://edu.uz)
32. [http // lex.uz](http://lex.uz)
33. [http // ziyonet.uz](http://ziyonet.uz)
34. [http // pedagog.uz](http://pedagog.uz)
35. [http // Wikipedia.org](http://Wikipedia.org)


ILOVALAR

1-ilova





Tarmoqli klaster. Bronza davri



MUNDARIJA:

SO‘Z BOSHI.....3

I BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING NAZARIY ASOSLARI

1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va tamoyillari..... 5
2. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining mohiyati ... 14

II BOB. TARIX FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH

1. Tarix darslarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish..... 20
2. Tarix fanini o‘qitishda grafik organayzerlar texnologiyasidan foydalanish 35

XULOSA40

FOYDALANILGAN VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....43

ILOVALAR45